O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2025-yil 23-dekabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2026-yil 5-fevralda ma’qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunchilik

Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

antidoping qoidalari — Butunjahon antidoping kodeksi va milliy antidoping qoidalari;

jismoniy reabilitatsiya — odam organizmining buzilgan yoki vaqtincha yo‘qotilgan funksiyalarini hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy va kasbiy faoliyatga bo‘lgan qobiliyatini jismoniy tarbiya va sport vositalari hamda usullaridan foydalangan holda tiklash (tuzatish va kompensatsiya qilish);

jismoniy tarbiya — madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan qismi;

jismoniy tarbiyalash — yuksak madaniyatga ega bo‘lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog‘lom insonni shakllantirish maqsadida shaxsni tarbiyalashga, uning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga, jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini oshirishga qaratilgan jarayon;

jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri tashkilotchisi — o‘z tashabbusi bilan jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri o‘tkazayotgan va (yoki) bunday tadbirni tayyorlash hamda o‘tkazishni tashkiliy, moliyaviy va moddiy jihatdan ta’minlashni amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish inshooti — ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari va jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan, o‘ziga qo‘yiladigan norma va talablarga javob beradigan yopiq yoki ochiq turdagi inshoot;

jismoniy tarbiya tadbirlari — aholini jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga jalb etishga va aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar;

ommaviy sport — sportning tashkil etilgan va (yoki) mustaqil mashg‘ulotlarga, shuningdek ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o‘tkazish orqali aholini jismoniy tarbiyalashga, sog‘lomlashtirishga, kamol toptirishga hamda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga jalb etishga doir qismi;

professional sport — sportning sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazishga doir qismi bo‘lib, sportchilar ularda o‘zining asosiy faoliyati sifatida ishtirok etganligi va ularga tayyorgarlik ko‘rganligi uchun mukofot va (yoki) ish haqi oladi;

sport — odamlarning muayyan qoidalar bo‘yicha tashkil etilgan, ularning jismoniy va intellektual qobiliyatini taqqoslashdan iborat bo‘lgan havaskorlik asosidagi va (yoki) professional

asosdagi faoliyati, shuningdek ushbu faoliyatga tayyorgarlik koʻrish hamda bu faoliyat jarayonida odamlar oʻrtasida yuzaga keladigan munosabatlar;

sportchi — tanlagan sport turi yoki sport turlari bilan muntazam shugʻullanadigan, doimo oʻzining sport mahoratini oshirib boradigan va sport tadbirlarida qatnashadigan jismoniy shaxs;

sport diskvalifikatsiyasi — sport turining qoidalarini yoki sport musobaqalari toʻgʻrisidagi qoidalarni (nizomlarni, reglamentlarni) yoxud antidoping qoidalarini buzganlik uchun sportchini, trenerni, sport hakamini va sport sohasidagi boshqa mutaxassislarni sport musobaqalarida ishtirok etishdan chetlashtirish;

sport inshooti — sport tadbirlari, sport turlari boʻyicha oʻquv mashgʻulotlari va oʻquv-mashgʻulot yigʻinlarini oʻtkazish uchun moʻljallangan, belgilangan normalar va talablarga javob beradigan yopiq yoki ochiq turdagi ixtisoslashtirilgan inshoot;

sport musobaqasi — sportchilar yoki sport jamoalari oʻrtasida sport turi (sport turlari) boʻyicha eng yaxshi ishtirokchini (ishtirokchilarni) aniqlash maqsadida tasdiqlangan qoidalar asosida oʻtkaziladigan bellashuv;

sport tadbiri — tasdiqlangan qoidalar asosida tashkil etilgan, jismoniy faollik va raqobatga asoslangan musobaqa, shuningdek sogʻlom turmush tarzini targʻib qilishga, sportchilarning mahorati va salohiyatini namoyon etishga hamda aholini sportga jalb etishga qaratilgan tadbir;

sport turi — sport musobaqalariga oʻziga xos tarzda tayyorgarlik koʻrilishi bilan ajralib turuvchi, sport musobaqalarini oʻtkazishga va ularda ishtirok etishga doir talablar va shartlar belgilanadigan qoidalarga (nizomga, reglamentga) ega boʻlgan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyat turi;

sport turining tarmogʻi — farqlovchi belgilarga ega boʻlgan hamda bitta yoki bir nechta sport musobaqalari dasturlari turlarini oʻz ichiga oladigan sport turining qismi;

sport federatsiyasi (uyushmasi) — mamlakatda muayyan sport turini (turlarini) rivojlantirishni, ommalashtirishni, sport tadbirlarini tashkil etish va oʻtkazishni, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasining sport terma jamoasi a'zoligiga nomzodlarni saralashni va tavsiya etishni oʻz faoliyatining asosiy maqsadi sifatida belgilagan, tegishli tartibda Sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestriga kiritilgan nodavlat notijorat tashkiloti;

sportning texnik va amaliy turlari — sport natijalariga erishish uchun sportchi tomonidan umumiy jismoniy mashqlar majmuasidan tashqari, sport texnikasidan, moslamalaridan yoki texnikaviy vositalardan foydalana bilish hamda ularni boshqarish sohasidagi koʻnikmalar va mahorat qoʻllaniladigan, shuningdek har xil sport turlaridan olingan, amaliy ahamiyatga ega boʻlgan mashqlar birikmasidan foydalaniladigan sport turlari. Sportning texnik va amaliy turlari yoshlarni Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilishga tayyorlashning tarkibiy qismidir;

sportning harbiy-amaliy turlari — asosi harbiy xizmatchilar hamda maxsus xizmatni oʻtayotgan shaxslar tomonidan oʻz xizmat vazifalarini bajarishi bilan bogʻliq maxsus harakatlardan (shu jumladan usullardan) iborat boʻlgan sport turlari;

Oʻzbekiston Respublikasining sport terma jamoalari — xalqaro sport musobaqalariga tayyorgarlik koʻrish hamda ularda Oʻzbekiston Respublikasi nomidan ishtirok etish uchun turli yosh toifalari boʻyicha sportchilardan, trenerlardan, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassislardan iborat jamoalar;

havaskorlik sporti — sportning aholini ixtiyoriylik asosida sportga jalb etish orqali odamlar sogʻligʻini mustahkamlashga qaratilgan qismi.

4-modda. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash;

har kimning jismoniy tarbiya va sport bilan erkin shugʻullanishga boʻlgan huquqini ta'minlash;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat hamda jamoatchilik boshqaruvini uygʻunlashtirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi huquqlarining kafolatlarini belgilash;

jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitishga hamda zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik;

jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish hamda aholini sog‘lom turmush tarziga keng jalb etish;

Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish, sportchilar zaxirasini yaratish, shuningdek xalqaro musobaqalarda sportchilarning ishtirokini ta’minlash;

jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning, shuningdek jismoniy tarbiya va sport tadbirlari ishtirokchilari hamda tomoshabinlarining hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta’minlash;

nogironligi bo‘lgan shaxslar, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko‘maklashish;

O‘zbekistonning milliy sport turlarini va xalq o‘yinlarini rivojlantirish hamda ommalashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash;

xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

5-modda. Jismoniy tarbiya va sport subyektlari

Jismoniy tarbiya va sport subyektlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi;

O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi;

O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi;

sport federatsiyalari (uyushmalari) hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari;

jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari;

sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantiruvchi tashkilotlar;

jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlari;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar;

jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar, sportchilar, trenerlar, sport hakamlari, sport agentlari hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassislar, shuningdek jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ishtirokchilari hamda tomoshabinlari;

ushbu Qonunga muvofiq boshqa jismoniy va yuridik shaxslar.

2-bob. Jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat tomonidan tartibga solish

6-modda. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash:

sportchilarning sport tadbirlarida, shu jumladan sport musobaqalari va o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarida ishtirok etishini ta’minlash;

O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi, O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi, sport federatsiyalari (uyushmalari) hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga moliyaviy jihatdan ko‘maklashish;

jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari tomonidan moddiy-texnika va axborot resurslaridan, shuningdek ilmiy-tadqiqotga oid va texnik ishlanmalar hamda texnologiyalardan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish;

davlat mulkida bo‘lgan jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlarini saqlash;

sport inshootlarini qurish, mavjudlarini ta’mirlash va rekonstruksiya qilish;

jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

jismoniy tarbiya va sport vositalaridan aholining, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslarning sog‘lig‘ini mustahkamlash maqsadida foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish;

nogironligi bo‘lgan shaxslarning Paralimpiya o‘yinlarida hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi boshqa sport tadbirlarida ishtirok etishini rivojlantirishga va ta’minlashga ko‘maklashish;

sport tadbirlarini, ommaviy sport va jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish;

jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xalqaro hamkorligiga ko‘maklashish;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi dasturlarni, ilmiy-uslubiy tizimlarni hamda kompleks ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

7-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

jismoniy tarbiya va sport sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta’minlaydi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat dasturlarini va maqsadli dasturlarni tasdiqlaydi hamda ularning amalga oshirilishini ta’minlaydi;

sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini shakllantirish, shuningdek sport turlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalarini shakllantirish tartibini belgilaydi;

xalqaro va respublika miqyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini, shuningdek sportning texnik va amaliy turlari bo‘yicha sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini tasdiqlaydi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatli davlat organining, boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda yo‘naltiradi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibini belgilaydi;

jismoniy tarbiya va sport musobaqalari hamda tadbirlarini o‘tkazish qoidalarini belgilaydi;

sport unvonlari, sport razryadlari va malaka toifalarini berish tartibini tasdiqlaydi;

sport musobaqalarida g‘olib va sovrindor bo‘lgan sportchilarni hamda ularni tayyorlagan trenerlarni va terma jamoalar a’zolarini rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatli davlat organining vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Vakolatli davlat organi:

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat dasturlarini hamda maqsadli dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni, shuningdek jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish tahlilini amalga oshiradi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini o‘z vakolatlari doirasida tashkil etadi;

sport ta’lim tashkilotlarini hamda boshqa jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarini tashkil etish bo‘yicha takliflar kiritadi va ularning faoliyati tashkil etilishini ta’minlaydi;

sport turlari bo‘yicha yagona sport tasnifini, shuningdek ushbu tasnif to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlaydi;

sport turlarini va sport turining tarmoqlarini e’tirof etish, ularni sport turlari reyestriga kiritish, reyestrni yuritish va undan chiqarish tartibini belgilaydi;

Sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestrini shakllantirish, yuritish, reyestrdan chiqarish tartibini belgilaydi;

xalqaro va respublika miqyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini shakllantiradi hamda manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda ularning moliyalashtirilishi va o‘tkazilishini ta’minlaydi;

jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish yoki sport inshootlari qabul qilib olinayotganda va sport musobaqalari o‘tkazilishidan oldin ularning belgilangan standartlarga muvofiqligini tekshiradi;

O‘zbekiston Respublikasi sport terma jamoalarining tarkiblarini tasdiqlaydi, O‘zbekiston sport delegatsiyalarini jamlaydi, ularning tayyorgarlik ko‘rishini hamda xalqaro sport musobaqalarida va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarida ishtirok etishini ta’minlaydi;

Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda sportchilarning ishtirokini ta’minlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni belgilaydi;

sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etadi hamda o‘tkazadi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport uchun mo‘ljallangan tovarlarni ishlab chiqarish jarayonining jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid standartlarga muvofiq tashkil etilishiga ko‘maklashadi;

yangi jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlari barpo etilishini hamda mavjudlarining ta’mirlanishini va rekonstruksiya qilinishini tashkil etishga ko‘maklashadi;

jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha ilmiy, o‘quv va ommabop adabiyotlar, sport turlari bo‘yicha dasturlar tayyorlanishi va nashr etilishini, shuningdek jismoniy tarbiya va sport sohasida multimedia va raqamli texnologiyalar mahsulotlari ishlab chiqilishini tashkil etadi;

sportni ommalashtirishni va aholini sog‘lom turmush tarziga keng jalb etishni tashkil etadi;

jismoniy tarbiya va sportning ommalashtirilishini respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda tashkil etadi;

jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

9-modda. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi:

jismoniy tarbiyadan sog‘liqni mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va davolash vositasi sifatida foydalanadi;

mamlakatda sport tibbiyotini o‘rganish va rivojlantirish sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi, dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

aholining jismoniy jihatdan kamol topish holati tahlilini o‘tkazadi va tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi;

jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanayotgan shaxslarning tibbiy monitoringini tashkil etadi;

sportchilarning sport musobaqalariga tayyorgarlik ko‘rishini tibbiy jihatdan ta’minlashda ishtirok etadi;

davlat sport ta’lim muassasalari sportchilarining belgilangan tartibda tibbiy ko‘rikdan o‘tkazib borilishini ta’minlaydi;

sport tibbiyoti sohasidagi xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

sportchilar va boshqa mutaxassislar sport jarohatlarini olganda ularga tibbiy yordam ko‘rsatilishini tashkil etadi, shuningdek ularni jismoniy reabilitatsiya qilish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazadi;

aholining jinsi va yoshi toifasiga qarab, jismoniy mashqlar dasturini shakllantirishga doir uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

sog‘lomlashtirish markazlarini, davolash-jismoniy tarbiya dispanserlarini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

10-modda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish tashkil etilishini ta’minlaydi;

o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiya jarayonining sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishini, shuningdek sog‘lom turmush tarzi normalarini joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratilishini ta’minlaydi;

o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tashkilotlari talabalari o‘rtasida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etadi;

jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishda ishtirok etadi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o‘quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda ishtirok etadi;

o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tashkilotlarida sport klublari faoliyati yo‘lga qo‘yilishini ta’minlaydi hamda ularning sport klublari o‘rtasida sport musobaqalarini tizimli ravishda o‘tkazib boradi;

Butunjahon talabalar o‘yinlarida oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining ishtirokini ta’minlaydi;

o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tashkilotlari sport inshootlarining moddiy-texnika va resurs bazasi saqlanishi hamda rivojlantirilishini ta’minlaydi;

jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy va innovatsion loyihalarni amalga oshirishga investitsiya va grantlarni jalb etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

o‘quvchilar va talabalarga sog‘lom turmush tarzini, sport bilan shug‘ullanishning muhimligi, jismoniy va ma’naviy komillikka intilish tushunchasini singdirishga, ularni salbiy ta’sirlardan himoya qilishga hamda zararli odatlardan xalos etishga doir chora-tadbirlar majmuini amalga oshiradi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

o‘quvchilar va talabalarni jismoniy tarbiyalashning zamonaviy shakllari hamda usullarini, jinsi va yoshiga qarab ularga sport ko‘nikmalarini singdirishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqishni hamda ularni joriy etishga ko‘maklashishni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

11-modda. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi:

maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni hamda sport infratuzilmasini mustahkamlashni ta’minlaydi;

maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishni tashkil etadi;

bolalar va o‘quvchi yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etadi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o‘quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda ishtirok etadi;

umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida maktab sport klublari faoliyati yo‘lga qo‘yilishini ta’minlaydi;

umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining maktab sport klublari va o‘quvchilari o‘rtasida sport musobaqalarini tizimli ravishda o‘tkazib boradi;

jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishda ishtirok etadi;

maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish choralarini ko‘radi;

bolalarga sportga nisbatan muhabbatni singdirishga, o‘sib kelayotgan avlodda sport bilan shug‘ullanish, sog‘lom turmush tarzini olib borish, jismoniy va ma’naviy komillikka intilish muhimligi tushunchasini shakllantirishga, bolalarni salbiy ta’sirlardan himoya qilishga va zararli odatlardan xalos etishga doir chora-tadbirlar majmuini amalga oshiradi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

bolalarni jismoniy tarbiyalashning zamonaviy shakllari hamda usullarini, bolalarning jinsi va yoshiga qarab ularga sport ko‘nikmalarini singdirishning, sportga qobiliyatli bolalarni ixtisoslashtirilgan sport ta’lim muassasalarida o‘qitish uchun tanlab olishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqishni hamda ularni joriy etishga ko‘maklashishni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

12-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari:

tegishli hududda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga ajratiladigan mahalliy budjet mablag‘larini ko‘rib chiqadi, tasdiqlaydi, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

tegishli hududda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi hududiy dasturlarni tasdiqlaydi, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

tegishli hududdagi jismoniy tarbiya va sport sohasiga mas’ullarning hisobotlarini eshitadi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda ishtirok etadi.

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari:

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat dasturlarini hamda maqsadli dasturlarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi hududiy dasturlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

hududlarda jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunchilikning ijro etilishini tashkil etadi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tadbirlarning mahalliy budjetdan moliyalashtirilishini ta’minlaydi;

jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarini tashkil etishga ko‘maklashadi hamda ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga ko‘maklashadi;

aholini jismoniy tarbiya va sportga jalb etish ishlarini tashkil etadi;

jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish hamda o‘tkazishga, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ko‘maklashadi;

jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun fuqarolarning ish joyi, yashash joyi hamda dam olish joyida shart-sharoitlar yaratadi;

jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport uchun mo‘ljallangan tovarlar ishlab chiqarilishini, sohaga oid xizmatlar rivojlantirilishini tashkil etishga ko‘maklashadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

13-modda. Fuqarolarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tadbirlarda ishtirok etishi

Fuqarolar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari:

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni hamda boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirishda ishtirok etadi.

Fuqarolar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

3-bob. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatni tashkil etish

14-modda. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislar

Sportchilar, trenerlar, sport hakamlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan vakolatli davlat organi bilan birgalikda kasblari va lavozimlarining tasniflangan ro‘yxati belgilanadigan boshqa mutaxassislar jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislardir.

Sportchi, trener va sport hakami kasblari va lavozimlariga doir malaka talablari vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassislarning kasblari va lavozimlariga doir malaka talablari qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

15-modda. Havaskorlik sporti va professional sport

Fuqarolar havaskorlik sporti, shuningdek professional sport bilan sportchi, trener, sport hakami sifatida shug‘ullanish yoki qonunchilikda taqiqlanmagan jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Havaskorlik sporti va professional sport sohasidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tashkil etilishi hamda faoliyat ko‘rsatishi tartibi qonunchilikda belgilanadi.

16-modda. Ommaviy sport musobaqalari

Ommaviy sport musobaqalari aholini ommaviy sportga jalb etish maqsadida “Besh tashabbus olimpiadasi”, “Besh tashabbus paralimpiadasi” va boshqa ommaviy sport tadbirlari shaklida o‘tkazib boriladi.

Ommaviy sport musobaqalari vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda ushbu musobaqalar tashkilotchilari tomonidan belgilanadigan tartib asosida o‘tkaziladi.

17-modda. Sport sinovlari

Sport sinovlari aholi o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish hamda aholining jismoniy faolligini baholash maqsadida o‘tkaziladi.

Sport sinovlari natijalari vakolatli davlat organining axborot tizimiga kiritib boriladi.

Sport sinovlarini o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

18-modda. O‘zbekiston olimpiya harakati. O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi

O‘zbekiston olimpiya harakati Xalqaro olimpiya harakatining tarkibiy qismi bo‘lib, uning maqsadi olimpiya harakati prinsiplarini ommalashtirishdan, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko‘maklashishdan, sport sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdan, Olimpiya o‘yinlarida hamda Xalqaro olimpiya qo‘mitasi shafeligida o‘tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishdan iboratdir.

O‘zbekiston olimpiya harakati o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga, Xalqaro olimpiya qo‘mitasining Olimpiya xartiyasiga hamda o‘z ustaviga muvofiq amalga oshiruvchi

Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasi tomonidan boshqariladi. Davlat Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasiga oʻz ustavida belgilangan maqsadlarini amalga oshirishiga har tomonlama koʻmaklashgan holda, Oʻzbekiston olimpiya harakatini tan oladi va qoʻllab-quvvatlaydi.

Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasi:

olimpiya harakati prinsiplarini ommalashtiradi, yuksak yutuqlarga erishiladigan sportni va ommaviy sportni rivojlantirishga koʻmaklashadi;

Xalqaro olimpiya qoʻmitasining Olimpiya xartiyasiga muvofiq Olimpiya oʻyinlarida hamda Xalqaro Olimpiya qoʻmitasi shafeligida oʻtkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida Oʻzbekiston Respublikasining manfaatlarini ifoda etadi;

sportchilarni Olimpiya oʻyinlarida hamda Xalqaro Olimpiya qoʻmitasi shafeligida oʻtkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishga tayyorlashning zarur darajasini ta’minlashga qaratilgan dasturlarni va chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

sportda dopingning oldini olishga hamda unga qarshi kurashishga, shuningdek jismoniy tarbiya va sport sohasida har qanday shakldagi kamsitishlar va zoʻravonliklarning yuzaga kelishiga yoʻl qoʻymaslikka koʻmaklashadi;

Xalqaro olimpiya qoʻmitasining hamda Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasining olimpiya ramzlaridan, shioridan, bayrogʻidan, madhiyasidan, “olimpiya”, “olimpiada” degan nomlardan foydalanishga boʻlgan huquqlarini Oʻzbekiston Respublikasi hududida himoya qilish choralarini ta’minlaydi.

Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasi oʻz vakolatlarini vakolatli davlat organi, sport federatsiyalari (uyushmalari) hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Olimpiya oʻyinlarida va Xalqaro olimpiya qoʻmitasi shafeligida oʻtkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida Oʻzbekiston Respublikasi sport terma jamoalarining chiqishlari Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bayrogʻi ostida oʻtkaziladi.

Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

19-modda. Oʻzbekiston paralimpiya harakati. Oʻzbekiston Milliy paralimpiya qoʻmitasi

Oʻzbekiston paralimpiya harakati Xalqaro paralimpiya harakatining tarkibiy qismi boʻlib, uning maqsadi paralimpiya harakati prinsiplarini ommalashtirishdan, nogironligi boʻlgan shaxslar oʻrtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga koʻmaklashishdan, sport sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdan, Paralimpiya oʻyinlarida hamda Xalqaro paralimpiya qoʻmitasi shafeligida oʻtkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishdan iboratdir.

Oʻzbekiston paralimpiya harakati oʻz faoliyatini Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Xalqaro paralimpiya qoʻmitasining Paralimpiya xartiyasiga hamda oʻz ustaviga muvofiq amalga oshiruvchi Oʻzbekiston Milliy paralimpiya qoʻmitasi tomonidan boshqariladi. Davlat Oʻzbekiston Milliy paralimpiya qoʻmitasiga oʻz ustavida belgilangan maqsadlarini amalga oshirishiga har tomonlama koʻmaklashgan holda, Oʻzbekiston paralimpiya harakatini tan oladi va qoʻllab-quvvatlaydi.

Oʻzbekiston Milliy paralimpiya qoʻmitasi:

paralimpiya harakati prinsiplarini ommalashtiradi, yuksak yutuqlarga erishiladigan sportning paralimpiya turlarini hamda nogironligi boʻlgan shaxslar oʻrtasida ommaviy sportni rivojlantirishga koʻmaklashadi;

Xalqaro paralimpiya qoʻmitasining Paralimpiya xartiyasiga muvofiq Paralimpiya oʻyinlarida hamda Xalqaro paralimpiya qoʻmitasi shafeligida oʻtkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida Oʻzbekiston Respublikasining manfaatlarini ifoda etadi;

sportchilarni Paralimpiya oʻyinlarida hamda Xalqaro paralimpiya qoʻmitasi shafeligida oʻtkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etish uchun tayyorlashning zarur darajasini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

sportning paralimpiya turlari bo‘yicha dopingning oldini olishga hamda unga qarshi kurashishga, shuningdek jismoniy tarbiya va sport sohasida har qanday shakldagi kamsitishlar va zo‘ravonliklarning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashadi;

Xalqaro paralimpiya qo‘mitasining hamda O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasining paralimpiya ramzlaridan, shioridan, bayrog‘idan, madhiyasidan, “paralimpiya”, “paralimpiada” degan nomlardan foydalanishga bo‘lgan huquqlarini O‘zbekiston Respublikasi hududida himoya qilish choralarini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi o‘z vakolatlarini vakolatli davlat organi, sport federatsiyalari (uyushmalari) hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Paralimpiya o‘yinlarida va Xalqaro paralimpiya qo‘mitasi shafeligida o‘tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida O‘zbekiston Respublikasi sport terma jamoalarining chiqishlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i ostida o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

20-modda. Surdlimpiya, maxsus olimpiya, ko‘zi ojizlar sporti va boshqa adaptiv sport turlari

O‘zbekiston surdlimpiya harakati Xalqaro surdlimpiya harakatining tarkibiy qismi bo‘lib, uning maqsadi surdlimpiya harakati prinsiplarini ommalashtirishdan, nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko‘maklashishdan, sport sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdan, Surdlimpiya o‘yinlarida hamda Xalqaro karlar sporti qo‘mitasi shafeligida o‘tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishdan iboratdir.

O‘zbekiston maxsus olimpiya harakati Xalqaro maxsus olimpiya harakatining tarkibiy qismi bo‘lib, uning maqsadi maxsus olimpiya harakati prinsiplarini ommalashtirishdan, nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko‘maklashishdan, sport sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdan, xalqaro maxsus olimpiya o‘yinlarida hamda tegishli xalqaro sport tashkilotlari shafeligida o‘tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishdan iboratdir.

O‘zbekiston ko‘zi ojizlar sporti harakati Xalqaro ko‘zi ojizlar sporti harakatining tarkibiy qismi bo‘lib, uning maqsadi ko‘zi ojizlar sporti harakati prinsiplarini ommalashtirishdan, ko‘zi ojiz shaxslar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko‘maklashishdan, sport sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdan, xalqaro ko‘zi ojizlar sporti musobaqalarida hamda tegishli xalqaro sport tashkilotlari shafeligida o‘tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishdan iboratdir.

Surdlimpiya, maxsus olimpiya, ko‘zi ojizlar sporti va boshqa adaptiv sport turlarini rivojlantirish O‘zbekiston adaptiv sport turlari assotsiatsiyasi hamda sportning surdlimpiya, maxsus olimpiya va ko‘zi ojizlar sporti turlari bo‘yicha nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan tashkil etiladi.

21-modda. Sport federatsiyalari (uyushmalari)

Sport federatsiyasi (uyushmasi) mamlakatda muayyan sport turini (turlarini) rivojlantirish, ommalashtirish, sport tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish, tegishli sport turi (turlari) bo‘yicha sportchilarni tayyorlash ishlarini amalga oshiradi, xalqaro miqyosdagi barcha sport musobaqalari va tadbirlarida O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini ifoda etadi.

Sport federatsiyasi (uyushmasi) o‘zi rivojlantiradigan sport turi (turlari) bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining chempionatlari va kuboklari musobaqalari o‘tkazib borilishini tashkil etadi.

Sport federatsiyasining (uyushmasining) rasmiy nomi nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq bo‘lishi hamda unda sport federatsiyasi (uyushmasi) faoliyatining hududiy sohasi, shuningdek sport federatsiyasi (uyushmasi) qaysi sport turini (turlarini) rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan bo‘lsa, o‘sha sport turi (turlari) ko‘rsatilishi lozim.

Sport federatsiyalarining (uyushmalarining) tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi, ushbu Qonunda nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda, nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

22-modda. Sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestri

Sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestri vakolatli davlat organi tomonidan yuritiladi.

Quyidagi mezonlarga muvofiq bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlari belgilangan tartibda Sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestriga kiritiladi:

ularning rivojlantiradigan sport turi (turlari) bo‘yicha xalqaro sport tashkilotiga a’zo ekanligi (bundan milliy va adaptiv sport turlari mustasno);

ular rivojlantiradigan sport turi (turlari) bo‘yicha sport turi qoidalarining mavjudligi;

ularning Sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestriga kiritilgan sport federatsiyalari (uyushmalari) nomlaridan farqlanadigan nomga ega ekanligi;

ular rivojlantiradigan sport turining (turlarining) boshqa sport turi (turlari) belgilaridan farqlanishi;

ular rivojlantiradigan sport turi (turlari) bo‘yicha Sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestriga boshqa sport federatsiyasi (uyushmasi) kiritilmaganligi.

Sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestriga, istisno tariqasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan sport turini (turlarini) yoki sportning alohida yo‘nalishlarini rivojlantirishi belgilangan sport federatsiyalari (uyushmalari) to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritiladi. Bunda sport federatsiyalarini (uyushmalarini) reyestrdan chiqarish bo‘yicha qoidalar mazkur qismda ko‘rsatib o‘tilgan sport federatsiyalariga (uyushmalariga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

Sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestrida quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

sport federatsiyalarining (uyushmalarining) nomlari;

sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan rivojlantiriladigan sport turi (turlari);

sport federatsiyalari (uyushmalari) rahbar organlarining shaxsiy tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

sport federatsiyalarining (uyushmalarining) xalqaro sport tashkilotiga a’zoligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestrida ko‘rsatilgan ma’lumotlar ochiq bo‘ladi va vakolatli davlat organining axborot tizimiga joylashtiriladi.

Sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestriga vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda boshqa ma’lumotlar ham kiritilishi mumkin.

23-modda. Sport federatsiyalarining (uyushmalarining) huquq va majburiyatlari

Sport federatsiyalari (uyushmalari) quyidagi huquqlarga ega:

sport turini yoki sport turining tarmog‘ini Sport turlari reyestriga kiritish yuzasidan taklif kiritish;

sport turi (turlari) bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi sport terma jamoalarining xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etishini tashkil etish;

sport turini (turlarini) rivojlantirish uchun qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan turli manbalardan moliyaviy va boshqa turdagi yordam olish.

Sport federatsiyalari (uyushmalari) qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Sport federatsiyalari (uyushmalari):

sport turini (turlarini) rivojlantirishi va ommalashtirishi;

sport turi (turlari) bo‘yicha sport turlari qoidalarini vakolatli davlat organiga davlat tilida taqdim etishi hamda o‘z rasmiy veb-saytida joylashtirishi;

sport turini (turlarini) rivojlantirish bo‘yicha kompleks maqsadli dasturlarni ishlab chiqishi;

sportchilar, trenerlar va o‘tkazilayotgan sport musobaqalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni vakolatli davlat organining axborot tizimiga kiritib borishi;

sport turini (turlarini) rivojlantirish va ommalashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlarni vakolatli davlat organiga taqdim etishi;

sport turi (turlari) bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalarini shakllantirish, shuningdek sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini shakllantirish bo‘yicha vakolatli davlat organiga belgilangan tartibda takliflar kiritib borishi;

sport turi (turlari) bo‘yicha har qanday shakldagi kamsitishlar va zo‘ravonliklarga yo‘l qo‘ymasligi;

antidoping qoidalariga muvofiq dopingning oldini olishi va unga qarshi kurashish choralarini ko‘rishi shart.

Sport federatsiyalarining (uyushmalarining) zimmasiga qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

24-modda. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyat. Nodavlat jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari reyestri

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyat jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar, o‘zini o‘zi band qilgan trenerlar hamda boshqa jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari xalqaro sport tashkilotlarining a’zosi bo‘lishi mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari chet davlatlarning sport tashkilotlari bilan munosabatlarda xalqaro sport tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan qoidalarga (nizomlarga, reglamentlarga) va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga rioya etadi.

Vakolatli davlat organi tomonidan Nodavlat jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari reyestri yuritiladi.

Nodavlat jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari reyestriga sport klublari, sport ta’lim tashkilotlari, jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yurituvchi boshqa yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o‘zini o‘zi band qilgan trenerlar kiritiladi.

Nodavlat jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari reyestriga kiritilgan jismoniy va yuridik shaxslar rasmiy sport musobaqalarida o‘z nomidan ishtirok etishi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalariga nomzod berishi mumkin.

Nodavlat jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari reyestrini shakllantirish, yuritish hamda reyestrdan chiqarish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

25-modda. Sport klubi

Sport klubi sport faoliyati bilan shug‘ullanish, sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirish, shuningdek sportchilarni musobaqalarga tayyorlash maqsadida tashkil etiladi.

Sport klubi, idoraviy mansubligi va mulkchilik shaklidan qat’i nazar, yuridik shaxs maqomi bilan yoki yuridik shaxs maqomisiz tashkil etilishi mumkin.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan sport klubi qonunchilikka muvofiq davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

26-modda. Sport ligasi

Sport ligasi sport musobaqalarini tashkil etish, o‘tkazish va boshqarish faoliyatini amalga oshirish maqsadida, idoraviy mansubligi hamda mulkchilik shaklidan qat’i nazar, yuridik shaxs maqomi bilan yoki yuridik shaxs maqomisiz tashkil etiladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan sport ligasi qonunchilikka muvofiq davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

Sport ligasi sport turi (turlari) bo‘yicha professional sport musobaqalarini tashkil etish hamda o‘tkazish uchun professional sport musobaqasini tashkil etish va o‘tkazish qoidalarini (nizomini, reglamentini) qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlaydi.

Professional sport musobaqasini tashkil etish va o‘tkazish qoidalari (nizomi, reglamenti) ochiq ma’lumot sifatida sport ligasining Internetdagi rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi. Bunda mazkur qoidalar (nizom, reglament) qonunchilikka muvofiq bo‘lishi kerak.

Sport ligasining faoliyat yuritish tartibi, shuningdek sport ligalari tomonidan professional sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

27-modda. O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlari

O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlari milliy ijtimoiy-madaniy yo‘nalishga ega bo‘lgan hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida rivojlanayotgan sport va o‘yin turlaridir.

O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlari O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi madaniy merosining ajralmas qismi, aholida vatanparvarlik va Vatanga muhabbat, xalqaro maydonda mamlakatning obro‘-e’tiborini yuksaltirishga intilish tuyg‘ularini tarbiyalash poydevoridir.

Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari, shuningdek boshqa tashkilotlar:

O‘zbekiston milliy sport turlarini va xalq o‘yinlarini rivojlantirishga har tomonlama ko‘maklashadi hamda ularni aholi o‘rtasida yoyish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;

O‘zbekiston milliy sport turlarining va xalq o‘yinlarining xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini mustahkamlashga ko‘maklashadi.

O‘zbekiston milliy sport turlarini va xalq o‘yinlarini Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga kiritish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

28-modda. Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish hamda o‘tkazish

Jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilari bu tadbirlarni o‘tkazish shartlarini, shu jumladan jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish hamda o‘tkazishni moliyalashtirish shartlarini belgilaydi, bunday tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish uchun mas’ul bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlari tashkilotchilari quyidagi huquqlarga ega:

jismoniy tarbiya va sport tadbirining nomi va ramzlaridan foydalanish;

jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o‘tkazish joyida tovarlar, ishlar va xizmatlar reklamasini joylashtirish;

jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida foydalaniladigan sport ekipirovkasi, sport uskunalari va anjomlarini ishlab chiqaruvchilarni belgilash;

jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini yoritish;

jismoniy tarbiya va (yoki) sport tadbirini to‘xtatish va bekor qilish, ularni o‘tkazish vaqtini o‘zgartirish hamda ularning yakunlarini tasdiqlash.

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining nomlaridan, ular asosida tuzilgan so‘z birikmalaridan hamda mazkur tadbirlar ramzlaridan uchinchi shaxslarning foydalanishi jismoniy tarbiya va sport tadbirlari tashkilotchilari bilan yozma shaklda tuziladigan kelishuvlar asosida amalga oshiriladi, bundan ushbu nomlardan, ular asosida tuzilgan so‘z birikmalaridan va mazkur tadbirlar ramzlaridan axborot maqsadida yoxud ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini yoritish huquqini olgan uchinchi shaxslar tomonidan ushbu huquqlardan foydalanish hollari mustasno.

Ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilari tomonidan tasdiqlangan, to‘g‘ri ko‘rsatilgan nomlaridan foydalanilishi kerak. Bunda mazkur nomlar reklama hisoblanmaydi.

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini yoritish huquqidan uchinchi shaxslar faqat jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilarining yozma ruxsatlari bilan yoxud uchinchi shaxslar tomonidan ushbu huquqlarning bunday tadbirlar tashkilotchilaridan sotib olinganligi to‘g‘risidagi yozma shakldagi kelishuvlar asosida foydalanishi mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlari to‘g‘risidagi qoidalarning (nizomlarning, reglamentlarning) mazmuniga nisbatan qo‘yiladigan umumiy talablar vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Faqat rasmiy sport musobaqalari O‘zbekiston Respublikasi chempionati yoki kubogi maqomiga hamda nomiga ega bo‘lishi mumkin.

Rasmiy sport musobaqalarini o‘tkazishga faqat ushbu Qonunning 30-moddasiga muvofiq tasdiqlangan sport turlari qoidalariga asosan yo‘l qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida xalqaro sport tadbirlari tegishli sport federatsiyasi (uyushmasi) hamda vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda o‘tkazilishi mumkin.

29-modda. Sport turlarini va sport turining tarmoqlarini e’tirof etish. Sport turlarining reyestri

O‘zbekiston Respublikasida belgilangan tartibda e’tirof etilgan sport turlari va sport turining tarmoqlari Sport turlari reyestriga kiritiladi.

Sport turini yoki sport turining tarmog‘ini e’tirof etish uchun u sport turiga yoki sport turining tarmog‘iga mos belgiga, sport turi qoidalariga, mashg‘ulot o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari va uslubiyatiga, sport infratuzilmasiga, foydalaniladigan sport anjomlari va jihozlariga ega bo‘lishi hamda sport mashg‘ulotlari va sport musobaqalarini o‘tkazish talablariga javob beradigan sport infratuzilmasi mavjud bo‘lishi, shuningdek sportchilarning ishtirok etishiga, odamning jismoniy va aqliy rivojlanish qobiliyatini hamda harakat faolligini takomillashtirishga, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Sport turini yoki sport turining tarmog‘ini e’tirof etish ushbu sport turi yoki sport turining tarmog‘i ma’muriy-hududiy birliklarning (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) kamida yettitasida rivojlangan bo‘lishi kerak, bundan vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan sport turlari yoki sport turining tarmoqlari mustasno.

Sport turlarini yoki sport turining tarmoqlarini e’tirof etish sport federatsiyalarining (uyushmalarining), jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining arizasi asosida vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan sport turlarini yoki sport turining tarmoqlarini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sport turlarini yoki sport turining tarmoqlarini e’tirof etish vakolatli davlat organi tomonidan, istisno tariqasida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri e’tirof etiladi va Sport turlari reyestriga kiritiladi.

G‘ayriinsoniy va inson qadr-qimmatini kamsituvchi sport turlari yoki sport turining tarmoqlari O‘zbekiston Respublikasida sport turlari yoki sport turining tarmoqlari sifatida e’tirof etilishi mumkin emas.

Sport turlari reyestri vakolatli davlat organi tomonidan yuritiladi.

30-modda. Sport turlari qoidalari

Sport turlari reyestriga kiritilgan sport turlarining qoidalari xalqaro sport tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan qoidalarga muvofiq qo‘llaniladi, bundan harbiy-amaliy, O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlari mustasno.

Harbiy-amaliy, O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlari qoidalari qonunchilikda belgilangan tartibda ishlab chiqiladi.

31-modda. Sport unvonlari, sport razryadlari, malaka toifalari. Sport turlari bo‘yicha yagona sport tasnifi

O‘zbekiston Respublikasida quyidagi sport unvonlari, sport razryadlari, malaka toifalari belgilanadi:

a) sport unvonlari:

xalqaro toifadagi O‘zbekiston sport ustasi yoki xalqaro grossmeyster;

O‘zbekiston sport ustasi yoki O‘zbekiston grossmeysteri;

b) sport razryadlari:

O‘zbekiston sport ustaligiga yoki O‘zbekiston grossmeysterligiga nomzod;

birinchi sport razryadi;

ikkinchi sport razryadi;

uchinchi sport razryadi;

o‘smirlar uchun birinchi sport razryadi;

o‘smirlar uchun ikkinchi sport razryadi;
o‘smirlar uchun uchinchi sport razryadi;
v) sport hakamlarining malaka toifalari:
xalqaro toifali sport hakami;
milliy toifali sport hakami;
birinchi toifali sport hakami;
ikkinchi toifali sport hakami;
uchinchi toifali sport hakami;
sport bo‘yicha hakam;
g) trenerlarning malaka toifalari:
xalqaro toifali trener;
oliy toifali trener;
birinchi toifali trener;
ikkinchi toifali trener;
d) yo‘riqchi-uslubchilarning malaka toifalari:
oliy toifali yo‘riqchi-uslubchi;
birinchi toifali yo‘riqchi-uslubchi;
ikkinchi toifali yo‘riqchi-uslubchi.

Sport unvonlarini, sport razryadlarini va malaka toifalarini berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Sport turlari bo‘yicha yagona sport tasnifi Sport turlari reyestriga kiritilgan sport turlari bo‘yicha tegishli sport unvonlari va sport razryadlarini berish uchun bajarilishi zarur bo‘lgan normalar hamda talablarni, shuningdek ularni bajarish shartlarini belgilaydi.

Sport turlari bo‘yicha yagona sport tasnifi to‘g‘risidagi nizomda mazkur normalar, talablar va shartlarning mazmuni, shuningdek sport turlari bo‘yicha sport unvonlari va sport razryadlarini berish tartibi belgilanadi.

Sport turlari bo‘yicha yagona sport tasnifi va u to‘g‘risidagi nizom vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

32-modda. Xalqaro va respublika miqyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasi

Xalqaro va respublika miqyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasi O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi rasmiy sport yoki ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari ro‘yxatini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi sport terma jamoalarini xalqaro sport tadbirlariga tayyorlash hamda ularning ishtirok etishini ta’minlash bo‘yicha tadbirlar ro‘yxatini belgilovchi hujjatdir.

Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari xalqaro va respublika miqyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda kiritiladi.

Xalqaro va respublika miqyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasi tegishli kalendar yil boshlanguniga qadar tasdiqlanadi.

Xalqaro va respublika miqyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga kiritilgan sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari rasmiy sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari hisoblanadi.

33-modda. Sportchining huquq va majburiyatlari

Sportchi quyidagi huquqlarga ega:
sport turini yoki sport turlarini tanlash;
tanlangan sport turi yoki sport turlari bo‘yicha sport musobaqalarida ushbu sport turlari qoidalari hamda sport musobaqalari to‘g‘risidagi qoidalarda (nizomlarda, reglamentlarda) belgilangan tartibda ishtirok etish;
Sport turlari bo‘yicha yagona sport tasnifi normalari va talablarini bajarganda sport unvonlari va sport razryadlarini olish;

jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlar bilan qonunchilikda belgilangan tartibda shartnomalar tuzish;

o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga va boshqa birlashmalarga birlashish;

tanlangan sport turi bo‘yicha sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishini talab qilish;

jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organlarga yoki mansabdor shaxslarga yoxud sudga belgilangan tartibda shikoyat qilish.

Sportchilarning ayrim toifalari qonunchilikda belgilangan tartibda stipendiya va imtiyozli pensiya olish huquqiga ega.

Sportchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat tashkilotlari va sport federatsiyalari (uyushmalari) sportchilar uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini va ularning sog‘lig‘i muhofaza qilinishini ta’minlashi shart.

Sportchi:

jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida ishtirok etish hamda o‘quv mashg‘ulotlar paytida, shuningdek sport obyektlarida bo‘lganda xavfsizlik talablariga rioya etishi;

antidoping qoidalariga rioya etishi;

adolatli kurash prinsipiga rioya etishi, shuningdek raqiblari, sport hakamlariga va tomoshabinlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi;

o‘zi ishtirok etayotgan jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari to‘g‘risidagi qoidalarga (nizomlarga, reglamentlarga) hamda jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari tashkilotchilarining qonuniy talablariga rioya etishi;

sanitariya qoidalariga, normalariga va gigiyena normativlariga, tibbiy talablarga rioya etishi, belgilangan tartibda va muddatlarda tibbiy tekshiruvlardan o‘tishi shart.

Sportchining zimmasiga qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

34-modda. Sportchi pasporti

Sportchi pasporti yagona namunadagi hujjat bo‘lib, sportchining jismoniy tarbiya va sport tashkilotiga mansubligini hamda sport malakasini tasdiqlaydi.

Sportchi pasportida quyidagilar ko‘rsatiladi:

sportchining familiyasi, ismi, otasining ismi;

jinsi;

tug‘ilgan sanasi;

sportchi mansub bo‘lgan jismoniy tarbiya va sport tashkiloti;

sportchi tomonidan tanlangan sport turi;

sport unvonlari va sport razryadlari berilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

sport unvonlari va sport razryadlarini berish uchun zarur normalar hamda talablar bajarilganligini tasdiqlovchi ma’lumotlar;

sportchi tibbiy tekshiruvdan o‘tganligi to‘g‘risidagi belgi;

sport musobaqalarida erishilgan natijalar;

sportchining sport diskvalifikatsiyasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

davlat mukofotlari va boshqa shakldagi rag‘batlantirishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

treneri (trenerlari) to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

tanlangan sport turining yoki sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq boshqa ma’lumotlar.

Sportchining jismoniy tarbiya va sport tashkilotiga mansubligi sportchi hamda jismoniy tarbiya va sport tashkiloti o‘rtasida tuziladigan shartnoma asosida va (yoki) sportchining jismoniy tarbiya va sport tashkilotiga a’zoligini belgilovchi boshqa hujjatlar asosida aniqlanadi.

Sportchi pasporti uning amal qilish muddati cheklanmagan holda vakolatli davlat organining axborot tizimi orqali elektron shaklda beriladi.

Sportchi pasportini berish, almashtirish (yangisini berish) va hisobga olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

35-modda. Trener

Trener sportchilarni tayyorlash hamda ularning musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rishini tashkil etish, ularga nazariy va amaliy bilimlarni berish, shuningdek ularni jismoniy jihatdan kamol toptirishni amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir.

Trenerlik faoliyati bilan tegishli sport turi bo‘yicha malaka sertifikatiga ega bo‘lgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin.

Trenerlik faoliyati vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda e’tirof etilgan sport turi bo‘yicha jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunchilikka, shuningdek xalqaro sport tashkilotlarining qoidalariga (nizomlariga, reglamentlariga) muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi sport terma jamoalarining trenerlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Trenerlik faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

zo‘ravonlikni, diniy ekstremizmni, davlat tuzumiga, mamlakatning tinchligi va xavfsizligiga, uning aholisiga qarshi qaratilgan boshqa harakatlarni targ‘ib qilishga;

jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitishga;

o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida sportga aloqasi bo‘lmagan boshqa faoliyatni olib borishga;

taqiqlangan vositalarni, tamaki va alkogol mahsulotlarini iste’mol qilishga hamda ularni iste’mol qilishni targ‘ib etishga.

Trener quyidagi huquqlarga ega:

trenerlik faoliyatini amalga oshirish;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘qish;

sport musobaqalarida, jismoniy tarbiya tadbirlarida ishtirok etish.

Trener qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Trener:

jismoniy tarbiya va sportni hamda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishi;

o‘quv-mashg‘ulotlarida xavfsizlik, sanitariya qoidalariga, normalariga va gigiyena normativlariga rioya etishi;

trenerga nisbatan qo‘yilgan talablarga qat’iy rioya etishi;

kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borishi shart.

Trenerning zimmasiga qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

Trenerlik malaka sertifikatini berish va trenerlik faoliyatini amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

36-modda. Sport hakami

Sport turi qoidalariga va sport musobaqasi to‘g‘risidagi nizomga (reglamentga) rioya etilishini ta’minlash uchun vakolat berilgan jismoniy shaxs sport hakamidir.

Sport hakamining faoliyati jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunchilikka, shuningdek xalqaro sport tashkilotlarining qoidalariga (nizomlariga, reglamentlariga) muvofiq amalga oshiriladi.

Sport hakami xalqaro sport tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan qoidalarga (nizomlarga, reglamentlarga), sport turi qoidalariga hamda sport musobaqalarining qoidalariga (nizomlariga, reglamentlariga) muvofiq sport musobaqalariga hakamlik qiladi hamda ularga rioya etilishini ta’minlaydi.

Sport hakami quyidagi huquqlarga ega:

sport musobaqalarida hakamlik qilish;

sport musobaqalarida hakamlik qilganlik uchun haq (daromad) olish;

jamoat birlashmalariga birlashish;

sport musobaqasida hakamlik qilishda sport musobaqasi tashkilotchisidan tegishli shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish.

Sport hakami qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Sport hakami:

xalqaro sport tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan qoidalarni (reglamentlarni, nizomlarni), sport turi qoidalarini hamda sport musobaqalari qoidalarini (nizomlarini, reglamentlarini) bilishi va ularning talablariga qat’iy rioya etishi;

yuksak madaniyatni va hamjihatlikni namuna qilib ko‘rsatishi, shuningdek qo‘pollik, tartibsizlikning, ishtirokchilar (sportchilar, trenerlar, vakillar, tomoshabinlar) tomonidan sport turlari qoidalari buzilishining oldini olish choralarini ko‘rishi shart.

Sport hakamining zimmasiga qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

Sport hakami jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunchilik, shuningdek xalqaro sport tashkilotlari qoidalari (nizomlari, reglamentlari) bo‘yicha talablarni bajarmagan hollarda, uning xatti-harakatlari tegishli sport federatsiyalari (uyushmalari) huzurida tashkil etiladigan sport hakamlari hay’atlarida ko‘rib chiqiladi.

Sport hakami malaka toifasini berish va sport hakami faoliyatini amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

37-modda. Sport agenti

Sport agenti sportchi, trener yoki sport klubi nomidan shartnoma asosida faoliyat ko‘rsatuvchi, shartnomalar hamda transfer kelishuvlarini tuzishda vositachilik qiluvchi va ularning shartlariga rioya etilishini kuzatib boruvchi shaxsdir.

Sport agentining faoliyati jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunchilikka, shuningdek xalqaro sport tashkilotlarining qoidalariga (nizomlariga, reglamentlariga) muvofiq amalga oshiriladi.

Sport agenti quyidagi huquqlarga ega:

sportchilar, trenerlar va sport klublari bilan agentlik shartnomalarini tuzish;

sportchilar, trenerlar va sport klublari nomidan hamda ularning manfaatlarini ko‘zlab shartnoma asosida faoliyat ko‘rsatish;

shartnomalar tuzishda sportchilarning, trenerlarning va sport klublarining manfaatlarini ifodalash;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyat bilan shug‘ullanadigan homiylar, reklama beruvchilar bilan hamkorlik qilish;

sportchilar, trenerlar va sport klublari manfaatlarini ifoda etganlik uchun haq (daromad) olish.

Sport agenti qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Sport agenti:

xalqaro sport tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan qoidalarni (reglamentlarni, nizomlarni), sport turi qoidalari hamda sport musobaqalarining qoidalarini (nizomlarini, reglamentlarini) bilishi va ularning talablariga qat’iy rioya etishi;

tuzilgan shartnomalarga muvofiq sportchilarning, trenerlarning va sport klublarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kuzatib borishi hamda himoya qilishi kerak.

Sport agentining zimmasiga qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

Sport agenti faoliyatini amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

38-modda. O‘zbekiston Respublikasi Milliy antidoping agentligi

O‘zbekiston Respublikasi Milliy antidoping agentligi (bundan buyon matnda Milliy antidoping agentligi deb yuritiladi) sportda dopingning oldini olishni va unga qarshi kurashishni hamda doping nazoratini amalga oshiradi.

Milliy antidoping agentligi:

Butunjahon antidoping kodeksi asosida milliy antidoping qoidalarini tasdiqlaydi;

antidoping qoidalariga muvofiq doping nazoratini amalga oshiradi;

Butunjahon antidoping agentligi tomonidan yillik tasdiqlanadigan sportda taqiqlangan substansiyalar va (yoki) usullarning ro‘yxatini O‘zbekiston Respublikasida e’lon qiladi;

doping nazoratini o‘tkazish tartibini belgilaydi;

doping nazoratidan o‘tkaziladigan sportchilar ro‘yxatini tuzadi;

jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunchilikka va antidoping qoidalariga muvofiq boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

39-modda. Sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish

Antidoping qoidalarida nazarda tutilgan bir yoki bir nechta qoidabuzarlik, shu jumladan sportda foydalanish taqiqlangan substansiyalar va (yoki) usullar (bundan buyon matnda taqiqlangan substansiya va (yoki) taqiqlangan usul deb yuritiladi) ro‘yxatiga kiritilgan substansiyadan va (yoki) usuldan foydalanish yoki foydalanishga urinish sportda doping deb e’tirof etiladi.

Sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish antidoping qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Sportchilar va boshqa shaxslar tomonidan antidoping qoidalarining buzilishiga, sport musobaqasida qatnashayotgan jonivorlarga nisbatan taqiqlangan substansiya va (yoki) taqiqlangan usulning qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Dopingga qarshi ta’minot sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazishdan iborat.

Sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish chora-tadbirlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

doping nazoratini o‘tkazishni;

sportchilarning, trenerlarning, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa mutaxassislarning antidoping qoidalarini buzganlik uchun javobgarligini belgilashni;

taqiqlangan substansiyalar va (yoki) taqiqlangan usullar qo‘llanilishining oldini olishni;

doping nazoratini o‘tkazuvchi mutaxassislarning malakasini oshirishni;

jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarining qo‘shimcha ta’lim dasturlariga antidoping qoidalari, sportda dopingning sportchilar sog‘lig‘i uchun oqibatlari, antidoping qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi bo‘limlarni kiritishni;

ommaviy axborot vositalarida dopingga qarshi targ‘ibot olib borishni;

sportda dopingning oldini olishni va unga qarshi kurashishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishni;

sportchilarning ish qobiliyatini tiklash vositalari va usullarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishni;

doping nazoratini o‘tkazish tartibida nazarda tutilgan doping nazoratini o‘tkazish shartlarini buzganlik uchun jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining javobgarligini belgilashni;

sportda dopingning oldini olishni va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishni;

antidoping qoidalarida belgilangan boshqa har qanday faoliyatni amalga oshirishni.

Sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish choralarini ko‘rish uchun sport federatsiyalari (uyushmalari):

Butunjahon antidoping kodeksini, milliy antidoping qoidalarini hamda tegishli xalqaro sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan tasdiqlangan antidoping qoidalarini o‘z rasmiy veb-saytlarida davlat tilida joylashtirishi;

sport musobaqasi davrida hamda musobaqadan tashqari davrda Milliy antidoping agentligiga doping-test o‘tkazish maqsadida sportchilar ro‘yxatini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etishi;

ushbu Qonunga, Butunjahon antidoping kodeksiga, milliy antidoping qoidalariga hamda tegishli xalqaro sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan tasdiqlangan antidoping qoidalariga muvofiq boshqa talablarni bajarishi shart.

40-modda. Sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta’sir ko‘rsatishning oldini olish va unga qarshi kurashish

Sportchining, trenerning, sport hakamining yoki sport musobaqalari boshqa ishtirokchilarining yoxud tashkilotchilarining sport musobaqalari natijalarini yoki uning borishini qasddan o‘zgartirish maqsadida qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi yoxud shu maqsadda ushbu shaxslarga moddiy qimmatliklar berish yoki ularni mulkiy manfaatdor qilish, shuningdek ularga ruhiy, psixologik, jismoniy yoki boshqacha tarzda noqonuniy ta’sir ko‘rsatish sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta’sir ko‘rsatish hisoblanadi.

Sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta’sir ko‘rsatishning oldini olish hamda unga qarshi kurashish jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunchilikka, shuningdek sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan tasdiqlangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta’sir ko‘rsatishning oldini olish va unga qarshi kurashish chora-tadbirlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta’sir ko‘rsatganlik uchun javobgarlikni belgilashni;

sport musobaqalari to‘g‘risidagi tegishli nizomlarda sportchi, trener, sport hakami, sport sohasidagi boshqa mutaxassislarning o‘zaro manfaatlari to‘qnashuvining oldini olish va bartaraf etishga doir qoidalarni, shuningdek sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta’sir ko‘rsatishni taqiqlash bo‘yicha talablarni nazarda tutishni;

sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta’sir ko‘rsatishning oldini olish hamda unga qarshi kurashishda jismoniy tarbiya va sport subyektlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorligini ta’minlashni;

ommaviy axborot vositalarida sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta’sir ko‘rsatishning oldini olishga va unga qarshi kurashishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini olib borishni;

sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta’sir ko‘rsatishning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar o‘tkazishni hamda qonunga xilof ravishda ta’sir ko‘rsatilishi hollarini aniqlashga qaratilgan uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishni;

sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta’sir ko‘rsatishning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikni amalga oshirishni.

Sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta’sir ko‘rsatish qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

4-bob. Ta’lim tizimida, fuqarolarning ish joyida, yashash joyida hamda boshqa joylarda jismoniy tarbiya va sport

41-modda. Ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish

Ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

asosiy ta’lim dasturlari doirasida davlat ta’lim standartlari bilan belgilangan hajmlarda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha majburiy mashg‘ulotlar, shuningdek qo‘shimcha ta’lim dasturlari doirasida qo‘shimcha (fakultativ) jismoniy mashqlar va sport mashg‘ulotlari o‘tkazishni;

ta’lim oluvchilarni jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratishni, shu jumladan yoshlarning jismoniy tarbiya va sport tayyorgarligi bo‘yicha tadbirlar majmuini o‘tkazish uchun sport jihozlari va anjomlari bilan ta’minlashni;

ta’lim oluvchilarda ularning individual qobiliyatini hamda sog‘lig‘i holatini hisobga olgan holda, jismoniy tarbiya va sport ko‘nikmalarini shakllantirishni;

iqtidorli bolalar va yoshlarni aniqlashni, tanlashni va professional sportchi sifatida tayyorlashga yo‘naltirishni;

o‘quv mashg‘ulotlari paytida jismoniy tarbiya tadbirlarini amalga oshirishni;

ta’lim oluvchilarning jismoniy tarbiyasi tashkil etilishi ustidan tibbiy nazorat olib borishni;

ota-onalarda yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarda bolalarining sog‘lig‘i va ularning jismoniy tarbiyasiga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirishni;

bolalar va yoshlarning jismoniy tayyorgarligini hamda jismoniy rivojlanishini har yili monitoring qilishni;

ta’lim oluvchilar ishtirokida sport tadbirlarini, shu jumladan maktabgacha va maktab ta’limi tizimining ta’lim muassasalari o‘quvchilari, professional ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari hamda oliy ta’lim tashkilotlari talabalari ishtirokida sport musobaqalari o‘tkazilishini tashkil etishni.

42-modda. Fuqarolarning ish joyi, yashash joyi hamda dam olish joyida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish

Ish beruvchilar, ularning birlashmalari va xodimlar yoki ularning vakillik organlari o‘rtasidagi jamoa shartnomalari, kelishuvlari va mehnat shartnomalariga:

xodimlarga jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish hamda xodimlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishiga bog‘liq bo‘lgan boshqa tadbirlarni o‘tkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risidagi;

xodimlarga va ularning oila a’zolariga ushbu qismning ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun sport obyektlari, sport jihozlari va anjomlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish haqidagi qoidalar kiritilishi mumkin.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari fuqarolarning yashash joyi va dam olish joyi bo‘yicha jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, shu jumladan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni jalb etish choralarini ko‘radi.

Sanatoriy-kurort muassasalari, dam olish uylari va turistik bazalar rahbarlari fuqarolarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va davolash maqsadida fuqarolarning davolanishi hamda dam olishi jarayonida jismoniy tarbiya komponentlaridan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Ish beruvchilar xodimlarning jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug‘ullanishi, shu jumladan ish vaqti davomida yoki ish vaqtidan keyin ixtiyoriy ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi mumkin.

43-modda. Adaptiv jismoniy tarbiya va sport. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni jismoniy reabilitatsiya qilish

Adaptiv jismoniy tarbiya jismoniy tarbiyaning nogironligi bo‘lgan shaxslarni jismoniy reabilitatsiya qilishning kompleks vositalaridan foydalanuvchi qismidir.

Adaptiv sport sportning nogironligi bo‘lgan shaxslarni jismoniy reabilitatsiya qilishga hamda ijtimoiy moslashtirishga qaratilgan qismidir.

Adaptiv jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish sport bilan shug‘ullanishning ustuvorligi, ommalashuvi hamda ochiqligi prinsiplariga asoslanadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni adaptiv jismoniy tarbiya va sport usullaridan foydalangan holda jismoniy reabilitatsiya qilish hamda ijtimoiy moslashtirish jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida, ta’lim tashkilotlarida, shu jumladan reabilitatsiya markazlarida, nogironligi bo‘lgan shaxslarning sport klublarida amalga oshiriladi.

Ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mashg‘ulotlar bunday ta’lim oluvchilarning shaxsiy qobiliyatlari hamda sog‘lig‘ining holati hisobga olingan, adaptiv jismoniy tarbiya va sport vositalaridan foydalanilgan holda tashkil etiladi.

Vakolatli davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bilan birgalikda nogironligi bo‘lgan shaxslarning jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari vositasida jismoniy tarbiya, jismoniy kamol toptirish va jismoniy tayyorgarlik tizimiga uyg‘unlashuviga ko‘maklashadi.

Vakolatli davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari, shuningdek nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalari nogironligi bo‘lgan shaxslar ishtirokida jismoniy tarbiya va sport tadbirlari o‘tkazilishini tashkil etadi.

44-modda. Jazoni ijro etish muassasalarida jismoniy tarbiya va sport

Jazoni ijro etish muassasalari mahkumlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishini belgilangan tartibda tashkil etadi.

Jazoni ijro etish muassasalari ma’muriyati jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi hamda sport turlari qoidalariga muvofiq sport tadbirlarini tashkil etadi.

5-bob. Sport zaxirasini tayyorlash

45-modda. Yuqori malakali sportchilarni va sport zaxirasini tayyorlash

Yuqori malakali sportchilarni va sport zaxirasini tayyorlash sport ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqori malakali sportchilarni va sport zaxirasini tegishli sport ekipirovkasi, sport jihozi va anjomi, biologik va tibbiy-tiklovchi preparatlar bilan ta’minlash, shuningdek tibbiy xizmat (profilaktika, davolash) ko‘rsatishni tashkil etish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yuqori malakali sportchilarni va sport zaxirasini tayyorlash sport turining o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olingan holda tegishli sport turi bo‘yicha trenerlar va boshqa mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

46-modda. Sport zaxirasini tayyorlash bosqichlari

Sport zaxirasini tayyorlashda sportchilarni tayyorlashning quyidagi bosqichlari belgilanadi:

sport-sog‘lomlashtirish (adaptiv sport turlari uchun korreksiya) bosqichi;

boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi;

o‘quv-mashg‘ulot bosqichi;

sport mahoratini takomillashtirish (sport kamolotiga erishish) bosqichi;

oliy sport mahorati bosqichi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan bosqichlar tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

47-modda. Sportchilar tayyorlashni amalga oshiruvchi jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari hamda ta’lim tashkilotlari

Sportchilar tayyorlash maqsadida o‘quv-mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha, shu jumladan yuqori malakali sportchilarni va sport zaxirasini tayyorlash bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari hamda ta’lim tashkilotlari faoliyat ko‘rsatadi. O‘quv-mashg‘ulot jarayonini tashkil etish o‘quv-mashg‘ulot va boshqa sport tadbirlarini o‘tkazishni, shuningdek sport tadbirlarida sport ekipirovkasi, sport jihozi va anjomi, tibbiy xizmat, yo‘lkira, ovqatlanish masalalarini hamda qonunchilikda belgilangan boshqa tashkiliy masalalarni o‘z ichiga oladi.

O‘quv-mashg‘ulot jarayonini tashkil etish hamda yuqori malakali sportchilarni va sport zaxirasini tayyorlash sport federatsiyalari (uyushmalari), sport klublari, boshqa jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan trenerlar tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan ta’lim tashkilotlari jumlasiga jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlari kiradi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan ta’lim tashkilotlari jumlasiga kirmaydigan ta’lim tashkilotlarida sportchilarni tayyorlash maqsadida sport turlari bo‘yicha shunday tayyorgarlikni chuqurlashtirilgan o‘quv-mashg‘ulot jarayoni asosida amalga oshiradigan tarkibiy bo‘linmalar, ixtisoslashtirilgan guruhlar va sport klublari tashkil etilishi mumkin.

48-modda. Sport turlari bo‘yicha sportchilarni tayyorlashga doir o‘quv dasturlari

Jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi sport ta’lim tashkilotlarida sportchilarni tayyorlash vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan namunaviy o‘quv dasturlariga muvofiq olib boriladi.

Sportchilarni tayyorlashning namunaviy o‘quv dasturlari o‘quv-mashg‘ulot jarayonini amalga oshiruvchi jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikka

muvofiq ishlab chiqiladi hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tegishli ilmiy tadqiqotlar natijalariga hamda jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o‘tkazish amaliyotiga asoslanadi.

Sportchilarni tayyorlashning namunaviy o‘quv dasturlari vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarida o‘quv-mashg‘ulot faoliyatini sportchilarni tayyorlashga doir o‘quv dasturlaridan foydalanmasdan tashkil etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarida sportchilarni tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanilishi mumkin.

49-modda. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik faoliyat

Tegishli ma’lumotga va kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan shaxslarning jismoniy tarbiya va sport sohasida, shu jumladan davolash jismoniy tarbiyasi sohasida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishiga qonunchilikda belgilangan tartibda yo‘l qo‘yiladi.

6-bob. O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari va ularni shakllantirish

50-modda. O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari

O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari asosiy va zaxira tarkiblardan tashkil topadi.

O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari tarkibiga kiruvchi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislar ro‘yxati tegishli sport federatsiyalari (uyushmalari) bilan kelishilgan holda vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalarini respublika budjeti mablag‘lari hisobidan moddiy-texnikaviy ta’minlash, shu jumladan sport ekipirovkasi bilan ta’minlash, ilmiy-uslubiy, tibbiy-biologik, tibbiy jihatdan, dopingga qarshi ta’minlash vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

51-modda. O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalarini shakllantirish

O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalariga nomzodlar ro‘yxatlari har yili sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan shakllantiriladi va vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalariga nomzodlar ro‘yxatlarini shakllantirishning umumiy prinsiplari va mezonlari, ushbu ro‘yxatlarni tasdiqlash tartibi vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etishga tayyorgarlik ko‘rish va ishtirok etish uchun O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalariga nomzodlarning tegishli ro‘yxatiga kiritilgan shaxslar orasidan sport federatsiyalari (uyushmalari) tomonidan shakllantiriladi.

7-bob. Jismoniy tarbiya va sportning moddiy, tibbiy, moliyaviy hamda boshqa ta’minoti

52-modda. Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlari

Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlari xususiy yoki ommaviy mulk bo‘lishi mumkin.

Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlarini xususiylashtirish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘z hududida jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlarining rejalashtirilishi, loyihalashtirilishi, qurilishi hamda foydalanishga topshirilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ta’lim tashkilotlarining, korxonalarning, turar joy dahalarining asosiy jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlari bilan eng kam ta’minlanish normativlari qonunchilikda belgilanadi.

Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlarida fuqarolarning ayrim toifalariga qonunchilikda belgilangan tartibda imtiyozli asosda xizmatlar ko‘rsatilishi mumkin.

Ta’lim tashkilotlarini, aholi yashash maskanlarini zarur jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlari majmuini barpo etmasdan qurishga va rekonstruksiya qilishga, shuningdek jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlarini shu hudud doirasida ularga teng inshootlarni barpo etmasdan tugatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sport obyektlari bo‘lmagan ayrim yer va suv hududi uchastkalarida, shuningdek havo hududi uchastkalarida ushbu uchastkalarni qonunchilikda belgilangan tartibda muayyan muddatga sport obyektlari (trassalari) sifatida rasmiylashtirgan holda jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o‘tkazishga qonunchilikda belgilangan tartibda yo‘l qo‘yiladi.

Vakolatli davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda Sport inshootlari reyestrini yuritadi.

53-modda. Jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlarining tibbiy ta’minoti

Jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlarining tashkilotchilari bu tadbirlar ishtirokchilarini tibbiy yordam bilan ta’minlashni amalga oshirishi shart.

54-modda. Jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish

Jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish quyidagilar hisobidan amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining mablag‘lari;

tadbirkorlik faoliyati va boshqa xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar;

jismoniy tarbiya va sport sohasida pulli xizmatlar ko‘rsatishdan kelib tushadigan mablag‘lar;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik va xayriya mablag‘lari;

jismoniy tarbiya va sport jamoat birlashmalari ishtirokchilarining a’zolik badallari;

sport turlari bo‘yicha maxsus jamg‘armalarning mablag‘lari;

sport ramzlari, timsollaridan foydalanganlik uchun to‘lovlar;

chet el investitsiyalari mablag‘lari;

xalqaro va xorijiy tashkilotlarning grantlari hamda texnik ko‘mak mablag‘lari;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

55-modda. Sportchi va trenerlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash

Davlat tomonidan sportchi hamda trenerlarga bir martalik va oylik to‘lov (stipendiya, nafaqa va boshqalar) shaklidagi qo‘llab-quvvatlash choralari taqdim etilishi mumkin.

Ushbu moddada ko‘rsatib o‘tilgan qo‘llab-quvvatlash choralari qonunchilikda belgilangan sport musobaqalarida g‘olib va sovrindor bo‘lgan sportchilar, shuningdek ularni tayyorlagan trenerlarga taqdim etiladi.

Sportchilar va trenerlarga bir martalik va oylik to‘lov (stipendiya, nafaqa va boshqalar) shaklidagi qo‘llab-quvvatlash choralarini taqdim etish tartibi hamda ularning miqdorlari qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi.

56-modda. Jismoniy tarbiya va sport sohasida xavfsizlik normalari va qoidalariga rioya etilishini, fuqarolarning sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmati muhofaza qilinishini ta’minlash

Jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlarini o‘tkazadigan tashkilotlar ushbu tadbirlar o‘tkaziladigan joylarning texnika xavfsizligi qoidalariga va sanitariya qoidalariga, normalariga va gigiyena normativlariga muvofiq lozim darajada jihozlanishini ta’minlaydi.

Jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlari ularning ishtirokchilari va tomoshabinlar sog‘lig‘iga, sha’ni va qadr-qimmatiga ziyon yetkazilmaydigan tarzda o‘tkazilishi kerak.

Sportchilarning sha’ni va qadr-qimmati kamsitilishiga olib keladigan, shuningdek ularning sport jarohatlari olishiga sabab bo‘ladigan tayyorgarlik uslublaridan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jismoniy tarbiya yoki sport tadbirlarida ishtirok etish vaqtida sog‘lig‘iga ziyon yetkazilgan sportchilar, trenerlar hamda sport hakamlariga qonunchilikka muvofiq tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya ta’minlanadi.

Muassasalar va tashkilotlarning voyaga yetmagan sportchilar bilan o‘zaro munosabatlari belgilangan tartibda faqat ularning ota-onasining yoki ota-onasi o‘rnini bosuvchi shaxslarning yoxud ular tarbiyalanayotgan ixtisoslashtirilgan muassasalarning roziligi va ishtirokida amalga oshiriladi.

Sport musobaqalarida ishtirok etuvchi shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda sug‘urta polisiga ega bo‘lishi shart.

57-modda. Sport jihozi, anjomi va sport kiyim-boshi

Sport jihozi, anjomi va sport kiyim-boshi tegishli standartlarga, texnik reglamentlarga, normalarga va talablarga muvofiq bo‘lishi kerak.

58-modda. Jismoniy tarbiya va sportning ilmiy-uslubiy hamda texnik ta’minoti

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda o‘tkazishni ta’lim muassasalari va tarkibida ilmiy markazlar tashkil etiladigan boshqa tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, belgilangan tartibda tashkil etilgan hamda o‘z faoliyatini davlat buyurtmalari va boshqa buyurtmalar asosida olib boradigan laboratoriyalar amalga oshiradi.

Ta’lim muassasalari va boshqa tashkilotlar jismoniy tarbiya vositalari bilan aholi sog‘lig‘ini mustahkamlashga ko‘maklashadigan aniq dasturlarni ishlab chiqadi hamda amaliyotga joriy etadi, sport zaxiralarini va O‘zbekiston Respublikasining sport terma jamoalarini xalqaro sport tadbirlariga tayyorlashni ilmiy jihatdan ta’minlashni takomillashtiradi.

Vakolatli davlat organi, boshqa davlat organlari va tashkilotlari ta’lim muassasalari va tashkilotlariga jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda, shuningdek dolzarb ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmalari hamda boshqa buyurtmalarni shakllantirishda ko‘maklashadi, ilmiy-tadqiqot ishlarining yakunlarini tahlil qiladi va ularning faoliyatiga yordam ko‘rsatadi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

59-modda. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi xalqaro hamkorlik

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi xalqaro hamkorlik xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan prinsiplari va normalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va qonunchiligi asosida amalga oshiriladi.

60-modda. Nizolarni hal etish

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

61-modda. Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

62-modda. O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish

Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

1) O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi 513-XII-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, № 3, 160-modda);

2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida”gi 514-XII-sonli Qarori (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, № 3, 161-modda);

3) O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 6-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 1086-XII-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil, № 5, 161-modda);

4) O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-mayda qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 76-II-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil, № 5-6, 147-modda);

5) O‘zbekiston Respublikasining 2005-yil 15-sentabrda qabul qilingan “Ba’zi davlat boshqaruv organlarining qayta tashkil etilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-5-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 309-modda) 1-moddasi;

6) O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrda qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-394-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2015-yil, № 9, 340-modda);

7) O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 26-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-416-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016-yil, № 12, 383-modda) 5-moddasi;

8) O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi O‘RQ-436-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, № 6, 300-modda) 4-moddasi;

9) O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-456-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 1, 1-modda) 4-moddasi;

10) O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 23-iyulda qabul qilingan “Ba’zi davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-486-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 7, 431-modda) 2-moddasi;

11) O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 3-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-653-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020-yil, № 12, 691-modda) 2-moddasi;

12) O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-683-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, 4-songa ilova) 13-moddasi;

13) O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrda qabul qilingan “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-721-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 10, 968-modda) 1-moddasi;

14) O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-770-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2022-yil, № 5, 464-modda) 3-moddasi;

15) O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-noyabrda qabul qilingan “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi O‘RQ-800-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2022-yil, № 11, 1061-modda) 28-moddasi birinchi qismining 1-bandi;

16) O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 20-yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-815-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2023-yil, № 1, 2-modda) 1-moddasi;

17) O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-sentabrda qabul qilingan “Ma’muriy islohotlar doirasida ta’lim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-957-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2024-yil, № 9, 958-modda) 2-moddasi.

63-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minlash

O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

64-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

ushbu Qonun 7-moddasi birinchi qismining sakkizinchi xatboshisida nazarda tutilgan jismoniy tarbiya va sport musobaqalari hamda tadbirlarini o‘tkazish qoidalarini ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy ichida ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

ushbu Qonun 24-moddasining yettinchi qismida nazarda tutilgan Nodavlat jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari reyestrini shakllantirish, yuritish hamda reyestrdan chiqarish tartibini ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy ichida ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

ushbu Qonun 26-moddasining beshinchi qismida nazarda tutilgan sport ligasining faoliyat yuritish tartibini, shuningdek sport ligalari tomonidan professional sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish tartibini ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy ichida ishlab chiqsin hamda tasdiqlasin;

ushbu Qonun 37-moddasining yettinchi qismida nazarda tutilgan sport agenti faoliyatini amalga oshirish tartibini ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy ichida ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

65-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Ushbu Qonunning 24-moddasi to‘rtinchi — yettinchi qismlari, 26, 37-moddalari mazkur Qonun kuchga kirgan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach amalga kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2026-yil 24-mart,
O‘RQ-1123-son